

TURK XOQONLIGI TARIXI YEVROPA OLIMLARI ASARLARIDA

Ibrohimova Ma'suma Ravshanjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

1-kurs magistranti

abdufattoyevamasuma@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlardagi davlatchilik tarixining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan Turk xoqonligining tashkil topishi, davlatchilik tarixi va u haqida ko'plab ma'lumotlar aks etgan tarixiy manbalar haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *xoqonlik, Ashina urug'i, G'arbiy Turk xoqonligi, P.Golden, turklar, yabg'u, teginshoh, Sug'd va Toxariston.*

Аннотация: *Известно, что важное место в мировой истории занимало Тюркское ханство, огромная империя тюрков, правившая Средней Азией и соседними областями в VI-VIII веках. По этой причине было проведено множество научных исследований и созданы работы о Турецком ханстве. В данной статье представлена информация о том, как история Турецкого ханства освещается в трудах европейских ученых.*

Ключевые слова: *каганизм, род Ашина, Западнотюркский каганат, П.Голден, тюрки, ябгу, тегиншах, Согд и Тохаристан.*

Abstract: *It is known that the Turkic Khanate, a huge empire of Turks that ruled Central Asia and its neighboring regions in the VI-VIII centuries, had an important place in world history. For this reason, many scientific studies were conducted and works were created on the Turkish khanate. This article provides information about how the history of the Turkish khanate is covered in the works of European scientists.*

Keywords: *khaganism, Ashina clan, Western Turkic Khaganate, P.Golden, turks, yabgu, teginshah, Sughd and Tokharistan.*

KIRISH.

Yevrosiyo kengliklari va unga qo'shni o'lkalardagi keng hududlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligi (552–744) Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallaydi. Qariyb ikki yuz yil mobaynida G'arbiy Oltoydan Qora dengizning shimoligacha, Volga – Ural bo'ylaridan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan keng hududda o'z hokimiyatini o'rnatgan Turk xoqonligi tarkibiga Sirdaryo – Amudaryo oralig'idagi Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd,



Buxoro, Toxariston va Xorazm kabi voha hukmdorliklari kirgan bo'lib, ushbu vohalardan ko'pchiligining geografik o'рни asosan bugungi O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Bu davrda Markaziy Osiyodagi davlatchilik jarayonlari aynan G'arbiy Turk xoqonligi faoliyati bilan bog'liq holda kechib, xoqonlik boshqaruviga xos davlatchilik an'analari esa mintaqada barpo etilgan bir qator davlatlar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

ASOSIY QISM

Xoqonlik tarixi bo'yicha Yevropada qator ishlar va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xoqonlik tarixining ba'zi bir jihatlari, shu jumladan, uning Shimoliy Hindiston va Afg'onistonda olib borgan faoliyatiga doir maxsus maqola yozgan vengriyalik olim Ya. Xarmattaning ishlari ham diqqatga sazovordir. U o'zining "Toxariston va Gandxara G'arbiy turklar hokimiyati ostida (650-750)" nomli maqolasida yozma manbalar va numizmatik materiallar asosida mazkur hududlarda xoqonlik boshqaruvining ayrim jihatlari yoritgan bo'lib, bu masalada yangicha va asosli fikrlarni o'rta qo'ya olgan[1,49]

Eftallarning O'rta Osiyoda hukmronligi asta – sekin zaiflasha boshladi. Aynan o'sha paytda O'rta Osiyoda kuchli raqib turk qabilasi konfederatsiyasi paydo bo'ldi. Turklar dastlab Xitoy chegara qal'alariga kelishgan va o'z mahsulotlarini ipakka ayrboshlashni taklif etishadi. Biroq 545-yilda Xitoy bu taklifni rad etadi. Turklarning tele va Juan-juan ustidan harbiy g'alabasidan keyin ular o'lja sifatida juda ko'p ipak olishgan. Xitoy davlatlari 569-yildan e'tiboran turklarga yiliga 100000 o'ram ipak yetkazib beradi. Turklar qimmatbaho materialning katta zahiralari to'plaganligi sababli, ipak savdosini rivojlantirish va Ipak yo'li ustidan nazoratni qo'lga kiritish uchun tobora tajovuzkor harakat qila boshladilar. Iqtisodiy manfaatlari va sosoniylar bilan ittifoq natijasida turklar Eftalitlar saltanatini ag'darishdi, lekin faqat So'g'diyona hududini egallashi mumkin edi. Sosoniylar esa, Chag'oniyonni qo'lga oldilar. Sind, Bust, Ruxxaj, Zobuliston, Toxariston, Turiston va Baliston vassal saltanatlari sifatida Turk xoqonligi tarkibiga kirdi.

Toxariston va Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan kichik podshohliklarning birinchi turk hukmdori Tardushod edi. U To'ng Yabg'u xoqonning o'g'li edi. Tarduni xotini zaharlab o'ldirgach, bir necha yil o'tib, uning o'rnini o'g'li Ishbara yabg'u egallaydi. U Turk hukmdorlari orasidan birinchi bo'lib tanga zarb qila boshladilar. Uning tangasida toj, ikki qanotli buqaning boshi tasvirlangan[2,366-370]. Yana bir vengriyalik tadqiqotchi M. Dobrovich tomonidan keyingi yillarda e'lon qilingan o'nlab maqolalarda xoqonlik va Vizantiya aloqalari hamda xoqonlikning Sharqiy Yevropadagi faoliyatiga doir yangi fikrlar o'rta qo'ya tashlangan.



Yabg'u va shad unvonlariga kelsak, Xitoy manbalarida yabg'u turk imperiyasining birinchi o'n yilliklarida va G'arbiy turklar orasida yuqori bo'lganligi aniq ko'rsatilgan. "Chjou shu" va "Suy shu" dagi turklar haqidagi boblar va "Tan shu" dagi G'arbiy turklar haqidagi boblar bu tartibni yaqqol ko'rsatadi. Biroq, Sharqiy turklar haqidagi boblarda shad unvoni yabg'udan yuqori daraja sifatida tasvirlangan. "Tan shu"dagi ular haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, Shad o'z qabilalari va qo'shinlariga ega bo'lgan barcha shahzodalarning (xoqonlarning o'g'illari yoki ukalari) unvoni bo'lgan. Keyinchalik, Ikkinchi Turk imperiyasi davrida, sulolaning har bir a'zosi yo shad yoki yabg'u unvoniga ega bo'lgan. Shubhasiz, 699-yildan keyin vaziyat shunday bo'lgan va 716-yildan keyin ham o'zgarmagan bo'lishi mumkin[3,34-42]. Xoqonlikning Sharqiy Yevropada, shu jumladan, Qora dengiz bo'ylari va Shimoliy Kavkazdagi faoliyatiga doir yaqin yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan yana biri ukrainalik tarixchi A. Komarga tegishlidir[4]. Uning "Наследие тюркских каганатов в Восточной Европе // Культурное наследие" asaridan quyidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin: "Xitoy yozuvchilari ma'lumotlariga asosan Vizantiyaning shimoli-sharqida, Forsning shimolida va So'g'dning g'arbida "turk-xazarlar" joylashgan. Ayni paytda, ehtimol, yozma manbalarda emas, balki arxeologik majmualarga dastlabki Xazar xoqonligi hukmdorlari va turk xoqon urug'i Ashinaning G'arbiy turk chizig'i o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning eng ishonchli dalili sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, "turkiy-so'g'd" komponentining o'zidan ularning madaniyatini to'liq to'g'ri tavsiflash uchun foydalanish mumkin. G'arbiy Turk xoqonligidagi turkiy qabilalar "nushibi" guruhining moddiy madaniyati hali yaxshi o'rganilmagan".

Oxirgi yillarda G'arbiy Turk xoqonligi tarixiga bugan qiziqish xorijda ancha-muncha ortayotgani ko'zga tashlanadi. Jumladan, germaniyalik arxeolog va tarixchi Z. Stark xoqonlikdagi «O'n O'q» tuzilmasining mazmun-mohiyatiga doir "O'n O'q bo'dun. G'arbiy Turk xoqonligi va Ashina qabilasi" nomli maxsus maqola bag'ishlagani va xoqonlik tarixining bir qator muammoli jihatlariga aniqlik kiritganini e'tirof etish lozim. Biroq tadqiqotchining boshqa nashrlarida xoqonlik davrida voha hukmdorliklaridagi unvonlarga nisbatan "moda unvonlar" deb ta'rif berishi tushunarsizdir. Uning asaridan quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Turgash xoqonlari Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi ko'chmanchi dunyoda o'zlarining hokimiyatida qonuniylik yo'qligini his qilgan bo'lishlari kerak. Ushbu kamchilikni qoplash uchun ular Ashina oilasidan uylanishga harakat qilishdi. Xitoyga bir necha behuda elchi yuborishlaridan so'ng va faqatgina o'zlarining kuchlari cho'qqisiga erishgan paytidagina ular bu maqsadga erishdilar. Vanihoyat,



722-yilning qishida Sulu nihoyat Istami xonadonidan bo'lgan malikani Tan imperatoridan nikohga oldi[5,163-167].


Fransiyalik so'g'dshunos va tarixchi olim E. de la Vessier tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ham xoqonlik tarixining bir qator mavhum jihatlarini yoritishga harakat qilgani diqqatni jalb qiladi. Tadqiqotchi sug'diy hujjatlarda xoqonlikka aloqador ma'lumotlar, yunon (Vizantiya) manbalarida keltirilgan turk hukmdorlarining shaxsiyati, sug'diy savdogarlarning xoqonlikdagi faoliyati kabi masalalarga e'tibor qaratgan[6]. Bundan tashqari uning "The last days of Panjikent" asarida arablar bosqini va ularga qarshi Turgash xoqoni kurashlari haqida ma'lumot berilgan. "721-yilda Yettisuvda tashkil etilgan Turgesh xoqoni Sulu so'g'd zodagonlari bilan yonma-yon So'g'diyonaga yurish uchun Ko'l-chur nomli oliy qo'mondonni yuboradi. Biroq, bahorda Xudhayna turklarni darada mag'lub etdi, lekin u shunchalik ko'p yo'qotishlarga uchradi, turklarni ta'qib qilishdan voz kechdi. Yangi musulmon yilining boshida u turklar joylashgan Varag'sorga guruh yubordi. Zarafshon daryosidan 40 kilometr yuqorida, Samarqandni suv bilan ta'minlovchi Darg'om kanali ustidan nazorat o'rnatishga harakat qildi. Shunga qaramay, hech qanday hal qiluvchi narsaga erishilmadi: noma'lum mahalliy kuchlarning tahdidiga uchradi. Keyingi voqealar haqida batafsil ma'lumot yo'q, ammo ma'lum bo'lishicha, Xudhayna murosaga erishganiga qaramay, So'g'ddagi tartibsizliklar davom etgan".

Bundan tashqari, g'arblik o'nlab turkolog va tarixchi olimlarning o'z tadqiqotlarida Turk xoqonligining tarixining ayrim jihatlarini yotib o'tganligini aytib o'tish lozim. Jumladan, amerikalik turkolog P. B. Golden o'z tadqiqotlarida xoqonlikning "O'n O'q" qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari xoqonlikdagi din masalalariga ham to'xtalib o'tgan. Turk xoqonligi kengayib, atrofdagi madaniyatlar bilan aloqaga kirishar ekan, unga bosib olingan xalqlarning dinlari ta'sir ko'rsatgan. Birinchi xoqonlik davrida, mazdaizm, boshqa Eron diniy tizimlari (masalan, zurvanizm) va buddizm ta'sirlari birinchi o'ringa chiqdi. Mugan va Taspar ikkalasi ham buddizmni rivojlantirdilar. Bu turk hukmdorlarining ikkinchi avlodiga (570 yoki 580 yillar) tegishli bo'lgan va so'g'd tilida yozilgan Bugut yozuvida o'z aksini topgan. Keyingi missionerlar asli toxarlar edi. G'arbiy turklar orasida buddizm ham keng tarqaldi. Ikkinchi xoqonlik davrida Bilge xoqon buddist va daoizm ibodatxonalarini tashkil etish haqida o'ylardi. Bunga To'nyuquq keskin qarshilik ko'rsatdi[7,150].

XULOSA

Shuni xulosa qilish mumkinki, dunyo tarixshunosligida qabul qilingan fikrga ko'ra, Turk xoqonligi – bu tipik dasht imperiyasi, uning asoschilari bo'lmish qadimgi turklar esa haqiqiy ko'chmanchilardir. Shunga binoan tadqiqotchilarning aksariyati xoqonlik tarixining barcha jihatlarini ko'chmanchilik asosida o'rganishadi va shu





sababli xoqonlikning siyosiy hokimiyati hamda Markaziy Yevroosiyo jamiyati masalasida bevosita nomadizmga aloqador nazariyalarda yondashiladi. Ayniqsa, hozirgi kun xorij tadqiqotchilari, garchi ko'chmanchilar jamiyatini o'rganishga sezilarli darajada hissa qo'shgan bo'lsalar – da, biroq Turk xoqonligi jamiyatining mohiyati borasida haligacha yagona nuqtai nazarga kelinmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бобоёров Ф. Б. Фарбий турк хоқонлиги: тарихи ва танга-пул тизими. – Т.: “Tafakkur avlodi” 2021.
2. Harmatta J., Litvinsky B.A Tohariston and Gandhara under Western Turk rule// HCCA. – Paris, 1996. – Vol.3
3. Dobrovits M. The Tölis and Tardus in Old Turkic Inscriptions // The Black Master. Essays on Central Eurasia in Honor of G. Kara on His 70th Birthday. Ed. by S. Grivelet and others. – Wiesbaden, 2005 .
4. Комар А. Наследие тюркских каганатов в Восточной Европе // Культурное наследие. – Астана, 2009.
5. Stark S. On Oq Bodun. The Western Turk Qaghanat and the Ashina clan//AEMAe. – Wiesbaden, 2008.
6. Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent. – Kamakura, 2002.
7. Golden P. B. An introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden, 1992.

